

Aliyeva Bahora Karamatillo qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filialining

2-bosqich talabasi; e-mail aliyevabahor06@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Madatov Ilhom Yusup o'g'li**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

INKLYUZIV TA'LIMNING RESPUBLIKAMIZGA KIRIB KELISHI VA MAVJUD MUAMMOLARI

Annotatsiya: Bu maqolada respublikamizga Inklyuziv ta'limning kirib kelishi hamda amaliyotga joriy etilishi, maqsadi va vazifalari haqida fikr yuritilgan va respublikamizda inklyuziv ta'limning kirib kelishiga to'sqinlik qiladigan bir qancha muammolar haqida fikr yuritilgan. Undan tashqari respublikamizda maxsus tarbiyaga muhtoj bo'lgan kishilarga jamiyatning qarshilarini o'zgartirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, ijtimoiy muhit, ta'lim dasturi, qaramlik muammosi.

KIRISH

Inklyuziv so'zi inglizcha (inclusive) so'zidan olingan bo'lib, uyg'unlashish, birlashtiruvchi degan ma'nolarni bildiradi. Ushbu ta'lim butun jahon bo'yicha eng insonparvar eng samarali ta'lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta'limning vazifasi turli xil yoshdagi ehtiyojli, ya'ni anamal o'quvchilarni qo'llaydi va ularni yutuqlarga erishishlariga yordam beradi. Ushbu ta'limning yaratilishidan ko'zlangan maqsad shundan iboratki, unda anomal o'quvchilarni boshqa rivojlangan o'quvchilardan ajralib qolmasdan birgalikda o'qishini ta'minlash hisoblanadi.

ASOSIY QISM

2020-2025 yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

Qaror bilan Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Unda quyidagilar belgilandi:

- inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi;
- o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi;
- inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish chora-tadbirlari.

Shuningdek quyidagilar tasdiqlandi:

- Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom;
- Sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom;
- Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risidagi nizom.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan keng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lib jismoniy, aqliy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etishdir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni sog'lom bolalar qatorida umumta'lim maktablarida o'qitish amaliyotini rivojlantirish maqsadida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning umumta'lim maktablariga integratsiyalashuvi (uyg'unlashtirgan holda ta'lim-tarbiya berish) tajribasi qo'llanilishi natijasida so'ngi yillarda 500 nafarga yaqin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablariga qaytarildi. Hozirgi kunda 3,2 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan.

Amalga oshirilgan ma'lum bir darajadagi yutuqlar bilan birga ayrim hal etilishi kerak bo'lgan muammolar ham mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: salbiy munosabat; hamjamiyatda ko'rinmaslik; moddiy mablag' muammolari; jismoniy moslashtirish; sinfdagi o'quvchilar soni; qaramlik; jinsiy belgilarga qarab kamsitish; favqulodda vaziyatlar, mojarolar va qochoqlar. Shulardan birinchisi salbiy munosabat muammosiga to'xtaladigan bo'lsak,

bu holat maxsus ehtiyojli bolalarning umumta'lim muassasalari tizimida ta'lim-tarbiya olaishlari uchun eng katta to'siq bo'lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ot-onalar, hamjamiyat a'zolari, o'qituvchilar, umumta'lim muassasalari hodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalarning o'zlaridagi umumta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya olishlariga nisbatan qashiliklari va buni istamasliklaridir. Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto'g'ri fikr, ular to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligi, nogiron bolalarning chegaralangan muhitda o'sganligi va boshqalardir.

Qaramlik muammosi- ya'ni bunda maxsus ehtiyojli bolalarning ko'p-

chiligini doimiy ravishda boshqalar ko'magiga muhtojligi nazarda tutiladi. Jinsiy belgilarga qarab kamsitish muammosi oqibatida ta'limda o'g'il bolalar va qiz bolalarning teng munosabatda bo'lmasligi kuzatiladi. Favqulodda vaziyatlar, mojarolar va qochoqlar. Favqulotta vaziyatlar, mojarolar va qochoqlar nafaqat nogironlik sababchisi, balki, maxsus ehtiyojli bolalarning

zaifligini yanada chuqurlashtirishga sabab bo'ladigan omildir. Jahon miqyosida esa hanuzgacha bu muammoning yechimlari topilganicha yo'q.

Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishi nihoyatda yuqori e'tiborni talab qiluvchi umuta'lim tizimining sohasi hisoblanib, imkoniyati cheklangan bolalar jamiyatning ijtimoiy qatlamidir, chunki ularning ko'pchiligi kam ta'minlangan oilalarda voyaga yetganlar. Inklyuziv ta'lim – bu imkoniyati cheklangan bolalarni barcha zaruriy vositalar bilan ko'p-

chilik bolalar uchun amalga oshiriluvchi ta'lim tadbirlariga jalb etishdir. Shundagina biz imkoniyati cheklangan barcha bolalarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga erishishimiz mumkin. Maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida respublikamizda ko'zga ko'rinarli ishlar qilindi.

Inklyuziv ta'limsiz bolalar o'qishi qanday bo'ladi? Degan savolga quyidagicha javob berish mumkin ,ya'ni anamal bolalarga mo'ljallangan maxsus maktabdagi bolalar kelajakda o'z o'rnini topishga ancha qiynalib qolishadi ,shuningdek bu o'quvchilar rivojlangan bolalar oldida o'zlarini juda noqulay his qiladilar va tortinadilar.Undan tashqari esa bu o'quvchilar o'z hayotlari davomida o'zlari uchun o'zlari harakat qilishdan to'xtab qoladilar va natijada esa boqimandalikka yuz tutadilar.Boqimandalik bu-inson o'z ehtiyojlari yo'lida hech qanday harakat qilmasdan balki boshqa shaxslardan doimo yordam so'rovchi shaxslardir.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim borasida, balki bolalarning ma'naviy va jismoniy o'sishlari, shuningdek vositalarni iqtisod qilish borasida ham samaralidir, maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida respublikamizda ko'zga ko'rinarli ishlar qilinmoqda. Olib borilayotgan ishlar natijasida imkoniyati cheklangan bolalar ta'limga jamoatchilik tashkilotlarining munosabati o'zgardi, ota-onalarning bolalariga e'tibori ortdi, ta'lim olishlari uchun qiziqishlari yanada ortdi. O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etish, integrasiya asosida ta'limni tashkil etishning o'ziga xos muammolari va qiyinchilaklari bo'lsada u barcha mintaqalarda rivojlanib bormoqda, bu esa imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishning noan'anaviy shakllarini tashkil etishga harakat qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2023-yil 23-sentyabr qabul qilingan). - <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Maxsus tarbiyaga muhtojligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" 2020-yil 15-oktabr, O'RQ-641-son. <https://lex.uz/ru/docs/5049549>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvar, PF-60- son. <https://lex.uz/docs/5841077>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-son. <https://lex.uz/ru/docs/4545887>
5. Madatov I.Y., Inklyuziv ta'lim, darslik, Toshkent., "Best-Publish" nashriyoti, 2024, 240 b.
6. R. Shomaxmudova, A. Berdiyeva, —Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish uslublaril uslubiy tavsianoma, OOO —ISHONCH MARKAZ SERVISI 2008y.
7. R.Sh. Shomaxmudova „, Maxsus va inklyuziv ta'lim xalqaro va milliy tajribalar"-o'quv uslubiy qo'lanma.Toshkent 2011.

8. Yusup o'g'li, Madatov Ilhom. "OLIV TA'LIM MUASSALARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR." *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI* 5.1 (2024): 1-10.

9. Yusup o'g'li, Madatov Ilhom. "Mustaqil ta'limni blended learning texnologiyasi asosida tashkil etish." *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI* (2022): 126-131.